

TASDIQLAYMAN

O'zDXA rektori

Sh.M.Toxtasimov



"4" sentabr 2023

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

"Xoreografiya jamoalari rahbari" kafedrasи

NIZOMI

2020 yil 23 sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida" gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldag'i PQ-4585-sonli "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi- sonli PQ-2909 - "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldag'i PQ-3151 – sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari asosida, hamda, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2008 yil 30 maydag'i "Oliy ta'lif muassasasining kafedrasи to'g'risida" Nizom, "Oliy ta'lif muassasasining kafedralari faoliyatini tashkil etish hamda kafedra mudirlari faoliyatini baholab borish tartibini tasdiqlash haqida"gi 28.04.2017 yilda № 267-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy Nizom va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

I. Umumiy qoidalar

1. “Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrasi “Xoreografiya san’atii” fakultetining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanib, unda bir yoki bir necha turdosh fanlar bo‘yicha o‘quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari, shuningdek, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda tashkiliy-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy ishlar amalga oshiriladi.

“Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrasi bundan buyon kafedra deb yuritiladi.

2. Kafedra tarkibiga professor-o‘qituvchilar va xodimlar toifasiga kiruvchi kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o‘qituvchi, o‘qituvchi, o‘qituvchi-stajyorlar hamda kabinet mudiri kiradi.

3. Kafedra professor-o‘qituvchilari “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ishga qabul qilinadi.

4. Kafedra o‘quv va ilmiy-ijodiy jarayonlarni ta’minlovchi o‘quv-ijodiy auditoriyalar, kabinetlarga ega bo‘lishi mumkin.

II. Kafedrani tashkil etish va boshqarish

5. Kafedra, kamida yetti nafar o‘qituvchi mavjud bo‘lib, ularning bir nafari, odatda, professor ilmiy unvoni yoki fan doktori ilmiy darajasiga, kamida ikki nafari fan nomzodi ilmiy darjasasi yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lganda tashkil etiladi.

6. Kafedra fakultet dekaniga va o‘quv ishlari bo‘yicha prorektorga bo‘ysunadi.

7. Kafedraning tuzilishi va uning shtatlari oliy ta’lim muassasasi rektori tomonidan tasdiqlanadi.

8. Kafedrani odatda, fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, shuningdek, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan hamda belgilangan tartibda oliy

ta’lim muassasasi Kengashida tanlovdan o’tgan kafedra mudiri boshqaradi va unga kafedra faoliyati uchun shaxsiy mas’uliyat yuklatiladi.

III. Kafedra mudirining vazifalari

9. Kafedra mudiri:

bevosita kafedra ishini tashkil etadi va boshqaradi;

oliy ta’lim muassasasi miqyosida kafedra faoliyatiga ta’luqli masalalar muhokamasi va hal etilishida ishtirok etadi;

kafedra ish rejasi, professor-o‘qituvchi va xodimlarining shaxsiy ish rejalari hamda kafedra faoliyati doirasidagi boshqa hujjatlarni tasdiqlaydi;

kafedra pedagog xodimlariga o‘quv yuklamalarini taqsimlaydi hamda ularning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qiladi;

ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlikni o‘rnatadi va muntazam rivojlantirib boradi;

kafedraga ishga olish, ishdan bo‘shatish va xodimlarni yangi vazifalarga tayinlash, ularni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish, shuningdek, intizomiy chora ko‘rish to‘g‘risida O‘zDXA rahbariyatiga belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

O‘zDXAning tegishli xizmat bo‘linmalaridan o‘quv-tarbiyaviy va ilmiy-ijodiy jarayonini talab darajasida o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni ta’minlashni talab etadi;

kafedra mudirining shaxsiy ish rejasi fakultet dekani va o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadi;

belgilangan tartib va muddatlarda o‘quv yilidagi faoliyati bo‘yicha kafedra xisobotini tayyorlaydi, Ilmiy kengash majlislarida hisobot beradi;

IV. Kafedra faoliyatini tashkil etish

10. Kafedra faoliyati o‘quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-ijodiy, ma’naviy-ahloqiy va tarbiyaviy hamda tashkiliy-uslubiy ishlarni qamrab olgan istiqbolli va joriy (yillik) rejalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu rejalar va kafedra faoliyatiga tegishli boshqa vazifalarning bajarilishi kafedra mudiri raisligida o'tkaziladigan majlislarda muhokama etiladi. Kafedra majlislariga boshqa kafedralar va oliy ta'lim muassasalaridan xodimlar taklif etilishi mumkin.

Professor-o'qituvchilar va xodimlarning shaxsiy ish rejalarini asosiy hujjat hisoblanib, u o'z ichiga:

o'quv ishlari, ilmiy-tadqiqot, ilmiy-metodik ishlari hamda ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni oladi.

Professor-o'qituvchilarning belgilangan tartibda tanlovdan o'tish, lavozimlarga tavsiya etish jarayonida ularning shaxsiy ish rejalarining bajarilish darajasi asosiy mezonlardan hisoblanadi.

11. Kafedraning asosiy faoliyat yo'naliishlari quyidagilardan iborat:

kafedra o'qituvchilarining shaxsiy ish rejalaridagi o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy-uslubiy ishlarini ko'rib chiqish, tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish, umumlashtirish va ilg'or tajribalarini ommalashtirishga qaratilgan ishlarni tashkil etish;

rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash;

kafedra yo'naliishlari va mutaxassisliklari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalarini va dasturlarini rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim dasturlari bilan qiyosiy tahlilini muntazam ravishda olib borish va takomillashtirish;

kafedra fanlari bo'yicha o'quv dasturlarni ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqqa taqdim etish, shuningdek, turdosh kafedralar tomonidan tayyorlangan o'quv dasturlariga taqriz va xulosalar tayyorlash;

darslik, o'quv, uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash, qayta nashr etiladigan darslik, o'quv qo'llanma va o'quv-uslubiy adabiyotlarga xulosalar berish;

o'quv shakllari (ishlab chiqarishdan ajralgan va ishlab chiqarishdan ajralmag'an hollarda) bo'yicha oliy ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq

tuzilgan o‘quv rejalaridagi fanlar bo‘yicha belgilangan mashg‘ulot turlarini yuksak nazariy, ilmiy-uslubiy va kasbiy darajada o‘tkazish, ta’lim sifatini ta’minalash;

talabalarning malakaviy amaliyoti, kurs loyihalari (ishlari), bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalariga, shuningdek, ilmiy-ijodiy ishlariga rahbarlik qilish;

talabalar bilimini xolis va ob’ektiv baholanishini ta’minalash va nazorat qilish;

iqtidorli talabalarni tanlash va ularni tarbiyalash, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi, nomdor davlat stipendiyalari va boshqa xalqaro va respublika miqyosida turli tanlovlarda, fan olimpiadalarida ishtirok etishga tayyorlash;

zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishni boshlagan yosh o‘qituvchilarga pedagogik malaka va ko‘nikmalarni egallashda amaliy yordam berish, o‘quv mashg‘ulotlarida zamonaviy o‘quv-texnika vositalaridan, yakka tartibda o‘qitish va mustaqil ta’lim olish uslublaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish, o‘qitishning zamonaviy kompyuter texnikalari bilan jihozlangan maxsus o‘quv auditoriyalarida tashkil qilish bo‘yicha takliflar qiritish;

bitiruvchilar bilan muntazam aloqalarni tashkil etish, bitiruvchilar monitoringini olib borish;

kafedrada o‘qitiladigan fanlardan amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq va sifatlil o‘tkazilishini ta’minalash hamda kafedra mahsus auditoriyalarni zamonaviy jihozlanishiga homiylarni keng jalb etish;

oliy ta’lim muassasasi axborot-resurs markazini kafedra ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklariga oid yangi o‘quv, uslubiy adabiyotlar bilan uzlusiz to‘ldirib borish va yangilanishini doimiy nazorat qilish;

kafedra ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

Fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, ilm-fanning istiqbolli, yuqori texnologiyali yo‘nalishlari bo‘yicha mamlakatimiz ilmiy-amaliy

maktablarini rivojlantirish, etakchi xorijiy oliy ta'lim muassasasi hamda ilmiy-ijodiy markazlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

tasdiqlangan rejaga muvofiq ilmiy-amaliy, ijodiy ishlarini olib borish, tugallangan ilmiy-amaliy va ijodiy ishlarini muhokama etish, nashr etishga tavsiya berish va ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

12. Kafedrada quyidagi hujjatlar bo'lishi kerak:

kafedra faoliyati uchun zarur bo'lgan me'yoriy-huquqiy, o'quv-uslubiy va boshqa xujjatlar;

o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni qamrab olgan ish rejalari hamda hisobotlari;

o'quv yuklamalari, kafedra a'zolarining shaxsiy ish rejalari, ularning bajarilishi yuzasidan hisobotlar;

professor-o'qituvchilar tomonidan o'tilgan darslarni qayd etish jurnali;

kafedraga taaluqli fanlar bo'yicha talabalar bilimining nazoratini qayd etish jurnali;

anketa ma'lumotlariga ega bo'lgan kafedra tarkibining ro'yxati;

majlislar bayonnomalari.

Izox: Ushbu "NIZOM" O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Kengashining 2023 yil "4" 09dagi yig'ilishida

(bayonnomma №2) tasdiqlandi.